

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi ikkinchi Airbus A321 havo kemasini qabul qilib oldi

2022 7 Mart

Bugun, 2022-yilning 7-mart kuni “Toshkent” aeroportining mahalliy aviayo‘nalishlar terminalida ikkinchi A321neo NX havo kemasini tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

UK32103 ro‘yxatga olish raqamini olgan A321neo NX havo kemasi Uzbekistan Airways ekipaj a‘zolari – Maksim Shulepin va Nagay Yevgeniy boshqaruvida olib kelindi.

Ushbu samolyot Evroosiyo qit‘asi bo‘ylab deyarli to‘la yuk bilan parvozlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston poytaxtidan ancha uzoq bo‘lgan Toshkent – London, Toshkent – Seul, Toshkent – Kuala Lumpur kabi yo‘nalishlarda qatnovni amalga oshiradi.

Samolyotning maksimal uchish vazni 97 tonna. Samolyot 23 000 kg tijorat yuklarini tashishi mumkin. Havo kemasi sahnida 188 yo‘lovchi o‘rindiqlari, ulardan biznes-klass – 16 va ekonom klassida 172 o‘rindiqqa ega.

Aviakompaniya havo kemalari parkini unifikatsiyalash “Uzbekistan Airways” AJ da transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da belgilab berilgan. Aviakompaniya yangi yo‘nalishlarni ochishni, Yevropa va Osiyo mamlakatlariga avvalgi mashhur bo‘lgan yo‘nalishlarni qayta tiklashni rejalashtirmoqda. Havo parkini yangi A321neo LR havo kemalari bilan to‘ldirish esa ushbu muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Eslatib o‘tamiz, joriy yilning 14-fevral kuni Uzbekistan Airways aviakompaniyasi o‘zining aviaparkidagi birinchi Airbus A321 LR havo kemasini kutib oldi. Uzbekistan Airways parki hozirda 26 ta yo‘lovchi havo kemasiga, jumladan, 12 ta Airbus laynerlari (A320 – 9, A320neo – 3, A321LR – 2) ega.

Tadbir ishtirokchilari, ommaviy axborot vositalari vakillari zamonaviy Airbus A321neo NX avialaynerining texnik xususiyatlari bilan yaqindan tanishish

imkoniyatiga ega bo'ldilar